

## NOGIRONLAR HUQUQLARINI TA'MINLASH; MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLARDAGI O'ZARO MUSHTARAKLIK

*Chirchik State Pedagogical University*

*Teacher: Xalimov Sunnat Chuliyevich*

*Chirchik State Pedagogical University*

*Undergraduate student: Boboxonova Madina Baxromovna*

**Annotation:** Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida''gi farmonlar, nogironlik mummolari bo'yicha global sammit, O'zbekiston va nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya : tashabbus va natijadorlik, Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish : O'zbekiston tajribasi.

**Key words:** "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" global sammit, farmonlar, konvensiya, tajriba,

**Kirish:** Joriy yil 17- fevralda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida''gi farmoni matbuotda e'lon qilindi. Ushbu hujjat 2022 yil 28 yanvarda tasdiqlangan "2022 -2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ijrosi doirasida ishlab chiqilgan.

Bunga qadar, Harakatlar strategiyasi doirasida, jumladan, Prezidentimiz tomonidan 2021 yil 25 martdagи "Keksalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida''gi qaror qabul qilingan va ijroga yo'naltiralgan.

Nogironlik mummolari bo'yicha global sammit , 2022 yil 16-17 fevral kunlai Nogironlik mummolari bo'yicha Global sammit bo'lib o'tdi .Ushbu Xalqaro anjuman Norvegiya va Gana Hukumatlari bo'yicha xalqaro alyans tomonidan onlayn shaklda tashkil etiladi. Nogironlik mummolari bo'yicha global sammitda imkoniyati cheklangan insonlar hayotida aniq va amaliy o'zgarishlar inklyuziv taraqqiyot talablarini tatbiq etish istiqbollari muhokoma qilindi. Bunda BMT ning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqildi. Barqaror rivojlanishning 17- maqsadiga erishish uchun sakkiz yildan ozroq vaqt qolmoqda. Shuning uchun, bu borada qo'lga kiritilgan natijalarga tayangan holda, ushbu maqsad doirasida belgilangan inkyuziv taraqqiyotni kengaytirish bo'yicha majburiyatlarni bajarish lozim. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish nogironligi bo'lgan shaxslarni himoya qilishning bir qator ustuvor yo'nalishlarini ilgari surdi. Xususan, Bosh kotibning fikricha, nogironligi bo'lgan

shaxslar hamma joyda har qanday imkoniyatlardan teng foydalana olishiga sharoit yaratish uchun investitsiyalar zarur. Bu esa katta miqdordagi moliyalashtirishni taqozo etadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni himoya qilish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biri - nogironligi bo'lgan shaxslarning konstitutsiyamizda ko'zda tutilgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquq va erkinliklarini xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsplari va normalari hamda O'zbekiston qo'shilgan xalqaro shartnomlarga muvofiq holda, boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ta'minlash hisoblanadi.

1. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davit tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillshtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida (2017 yil 1 dekabrda qabul qilingan);

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinaning 70 yilligiga bag'ishlangan Tadbirlar dasturida (2018 yil 6 maydagi farmon bilan tasdiqlangan);

3. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston respublikasining Milliy strategiyasida (2020 yil 22 iyundagi Farmon bilan tasdiqlangan);

O'zbekistonda alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilayotgani ta'kidlagani bejiz emas. 2020 yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari" to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun nogironligi bo'lgan shaxslarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini tartibga solishi bilan juda ahamiyatlidir. Qonun, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish modeli va sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarini amalga oshirishga qaratilgandir. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish bunda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash hamda himoya qilish masalari bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjati bilan tartibga solinmoqda. Bu o'rinda Konstitutsiya, 40 dan ziyod qonun va 160 dan ortiq qonunosti hujjati ko'zda tutilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda nogironlik sohasida 600 ga yaqin nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Ular orasida; O'zbekiston nogironlar jamiayti; O'zbekiston nogironlar jamoat fondi; O'zbekiston Nogiron ishbilarmon ayollar milliy assotsiatsiyasi; imkoniyati cheklangan yoshlar va bolalar markazi; O'zbekistondagi falaj nogiron bolalar va o'smirlarga yordam berish "Umr" jamoatchilik markazi; "Inklyuziv hayott" nogironlar amoat birlashmasi; O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati; O'zbekiston karlar jamiyati kabi NNTlar bor. Ushbu nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari konvebsniyani ratifikatsiya qilishda faol ishtirok etdi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. [www.Strategy.uz](http://www.Strategy.uz)
2. [www.norma.uz](http://www.norma.uz). Aloida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim joriy etildi. 17.10.2020.
3. [www.kun.uz/nogironligi](http://www.kun.uz/nogironligi) bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qorori.2020.